

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

### **MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARINING KOMIL IJODIDA AKS ETISHI, ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK**

**Nigora Bo'tayeva Abdumannonovna**

*JDPU Sirtqi bo'lim Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida  
masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir Komil Xorazmiy ijodida buyuk shoir Alisher Navoiy an'analarining munosib davom ettirilishi xususida bir qancha fikrlar keltirilgan. Shuningdek, ikki ijodkorning g'azallaridan namunalar keltirib muqoyasa qilingan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, lirika, g'azal, bayt, ma'rifat va oriflik, an'ana, vatan, ta'rif, peyzaj, san'at.

**Аннотация:** В данной статье представлены несколько идей о достойном продолжении традиций великого поэта Алишера Навои в творчестве поэта Камиля Хорезми. Также были сопоставлены образцы газелей двух художников.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, лирика, газель, стих, просвещение и мудрость, традиция, родина, определение, пейзаж, искусство.

**Annotation:** In this article, several ideas are presented about the worthy continuation of the traditions of the great poet Alisher Navoi in the work of the poet Kamil Khorezmi. Also, examples of the ghazals of the two artists were compared.

**Keywords:** Alisher Navoi, lyrics, ghazal, verse, enlightenment and wisdom, tradition, homeland, definition, landscape, art.

Komil Xorazmiy Hazrat Navoiyning ijodidan ta'sirlanganligi uning har bir satrida sezilib turadi. Komil Xorazmiy lirikasida mumtoz an'analar va Navoiy an'analariga sodiq qoladi. Masalan, shoir bir g'azalida shunday deydi:

Ondin biri diydoringa oshiqmen, ey zebo nigor,  
Chun safhayi ijodg'a yozdi qalam qoshu ko'zung.

Shoirning ushbu g'azali ma'noviy jihatdan Hazrat Navoiyning “Jong'a chun dermen” deb boshlanuvchi voqeaband g'azaliga o'xshab ketadi:

Yig'lab aytur ko'zki: «Yo'q erdi manga ham ixtiyor, -  
Ki ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati».

Jismning, jonning azoblanayotganligiga sabab, yor ishqidir. Ko'zga issiq ko'ringanlar ko'ngilga yaqin bo'ladi. Navoiyning satrlarida ko'z aytganidek, u yorning jamolini o'zi xohlab emas, nogahon ko'rib qoldi. Va jismxonasiga o't ketdi. Uning haroratida tana va ruhda isyon boshlandi.

Komil Xorazmiy ham yorning husnini ta'riflar ekan, oshiq shoir boshiga kelgan balolar sababkori yorning qoshu-ko'zi ekanligini aytadi. Shoir ushbu o'rinda yorning qosh-ko'zini tashbih san'ati orqali nihoyatda chiroyli ta'riflaydi. Ya'ni,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yorning qosh ko‘zлari shu qadar qoraki, xuddi qalam kabitdir. Ijod sahifasiga ishq nomasini bitgan qalam!

Yoki, yana bir g‘azalida:

Ey pari, pinhon jilvang gah-gahi ayon etkil,  
Ko‘z uyida mardumdek bir zamon makon etkil.

Bu satrlarni o‘qishimiz bilan xotirimizga beixtiyor ulug‘ shoir Alisher Navoiyning quyidagi satrlari keladi:

Qaro ko‘zum kelu mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,  
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Ushbu baytlarni turli olimlar turlicha tahlil qiladilar. Kimdir bu g‘azal Navoiyning asrandi o‘g‘liga atab yozilgan desa, yana kimdir payg‘ambarimiz (s.a.v)ni tushda ko‘rib, u zotga atab yozilgan deydi. Yana bir toifa olimlar borki, bu g‘azal Allohga atab yozilgan, deb aytishadi. Olim I. Haqqul o‘zining bir maqolasida “Navoiy “Qaro ko‘zum, kelu mardumlug‘ emdi fan qilg‘il”, deya murojaat va da‘vat aylagan shaxs din, ma’rifat, ishq ahlining piri komili edi. Shoir bu ulug‘ zotdan “mardumlig” tilaganda undan yetadigan bezavol fayz, baqo qulflarini ochadigan maslak va ma’rifat nurini nazarda tutgandi. “Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il”, deyilgani bilan hech kim, hech qachon birovning ko‘ziga kirib olib, muqim o‘rnasha qolmaydi. Shu uchun keyingi misradagi fikrni to‘ppa-to‘g‘ri tushunib, “Vatan” so‘zida “botinan qo‘nim, sukunat, harakatsizlik, istiqomat” ma’nosи mavjud demaslik kerak.[3;] Negaki, o‘tmishda kalimaning quyidagi kabi istilohiy izohlari berilgan: “Vatan – qulning hol bilan eng oxirda erishgani va qaror topgani (ma’naviy) yurtdir. Zero, “Kishi falon holga yetdi, falon maqomga yuksaldi” deyiladi. Junayd shunday degandir: “Ollohnинг shunday qullari bordurki, bir qancha maqom (vatan)larda kezurlar...” [1.360-b] Demak, Navoiy qo‘llagan “vatan” so‘zida “sukunat”, “harakatsizlik”ka hatto ishorat ham yo‘q. Ishq va ma’rifat ahli ongidan Olloh olamga komil inson ko‘zi bilan qaraydi va borliqni uning nigohi bilan ko‘radi, degan tushuncha muqim o‘rin egallagan. Shu bois Ibn Arabiy “Ollohnи faqat o‘zining ko‘zi bilan ko‘rishga umid qilgan kimsa johil va pardalanmishdir”, deydi. Ma’rifat va oriflik tarbiyasi shu johillik, shunaqa hijob ofatidan qutilish uchun juda-juda zarurdir. Birinchidan, inson kashfu karomat iddaolaridan xalos bo‘ladi. Ikkinchidan, nazar va mushohadada adashuvlardan saqlanadi. Navoiy esa komillarning sarvari, eng buyuk murshidlarning ham mahbubiga qarata, “Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il”, deydiki, bu – “Ey habiblarning habibi, dunyoga sening muborak ko‘zлaring bilan qarash menga ham nasib aylasin”, degani bo‘ladi”.[2:]

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Demak, Komil aytmoqchi bo'lgan “Ko'z uyida bir zamon vatan” tutishlik bu oshiq holining o'zgargani, ishqining darajasi oshganligiga ishoradir.

Komil Xorazmiyning ijod namunalari orasida “To'ti” radifli bir nechta g'azali bor. G'azallar ma'no jihatidan bir-birini to'ldirish barobarida o'ziga xos xususiyatlarini ham namoyon qiladi:

Sango soldi firoqi motamin ne dilbar, ey to'ti,

Kiyibsan bosh-ayoqingga libosi axzar, ey to'ti.

Shoir to'tiga qarata-sen qaysi dilbarning firoq motamida qoldingki, boshdin-oyog'inggacha motam libosi-yashil libos kiyibsan, deydi.

Shoir keyingi g'azalida to'tini oshiq qiyofasida tasvirlaydi. Agar u ham parvoz qilishni ixtiyor etsa, atrofidagi qushlar unga lashkar, to'ti esa ularga amir bo'lishi kerakligini aytadi:

Bo'lubsen bir guli ra'no g'amidin volavu hayron,

Yo'q ersa, ne uchun gah sabzsan, gah asfar, ey to'ti.

Bir yorga oshiqliging sabab azobda qolmishsan. Agar buni rad etarsan, unda nimaga ranging goh yashil, goh sariq bo'ladi. Bu o'rinda shoir to'tining rangi o'zgarishini bir muqim fikrda turmfydigan, tuyg'ularini el ko'zidan qancha pinhon tutishga urinmasin, o'zini-o'zi sotib qo'yayotgan oshiqga o'xshatadi.

Magar, so'rmishdurursen ul labi gulbargi xandonin,

Sanga minqor chun yoqtu la'li axmar, ey to'ti.

Agar u masrur gulbargning lablaridan bo'sa olgan ekansan, u bo'saning haroratidan sening tumshug'ing yoqut, qizil la'ldir, degan fikrlarini shoir tashbih, mubolag'a kabi badiiy san'atlar vositasida ifoda etadi.

Komil Xorazmiy ijodi boshdan-oyoq mumtoz an'analar asosida qurildi, ular dan ulgu oldi. Yuqorida tahlilga tortganimiz “to'ti” radifli g'azalining ma'no-mazmunidan kelib chiqib, bevosita Hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida to'tiga berilgan ta'rif yodimizga keladi. Hudhud tilidan:

“Sayrog'il, ey To'ti shirin kalom,

Nutq tashrifi bila oliy maqom.

Xil'ati axzar bila juyoi shah,

Yo'l oziqqonlarga bo'lg'il Xizri rah .”[2; 45]

Bilamizki, “Lison ut-tayr” dostonida bir guruh qushlar semurg'ni izlab yo'lga tushadilar. Ular bir qancha vodiylardan o'tib, Haqiqat bosqichiga yetishni niyat qiladilar. Va, xudxud barcha qushlarni bu maqsad sari chorlaydi. To'tiga: Ey, shirinkalom to'ti, sen nutqing sharafidan oliymaqom bo'lding. Egningdagi yashil libosing bilan shoh(Haq)ni izlovchilardan bo'lgin, yo'lini yo'qotganlarga Xizrdek

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yo'l ko'rsatgin, deydi. Sening asl Vataning Hindiston-shohlarning haramidir. Sen shakar tatib yurar eding. Sening haqiqiy manzilgohing shohning qo'lidir. Shu sabab ham unga yaqin bo'lib, uning har holidan ogosan. Endi kel, bu g'urbatlardan ko'chib ketib, u chamanga(ko'ngilga) yana parvoz qil, deydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, to'tiga berilgan ta'riflar, peyzaj, Komil Xorazmiy g'azalidagi to'tining ulug'lanishi bilan ayni bir xildir. Ammo, Komilning g'azali to'tini faqat yaxshi sifatlar bilan madh etsa, Hazrat Navoiy doston nuq'tai nazaridan, voqealar davomida to'tining asl yuzini fosh qilib o'tadi.

Hudhudning taklifidan so'ng to'ti, o'zini oliy nasabdan ekanligi, unga faqat shohlarning haramlari munosib joyligini, u o'zini goh ko'zguga solib mahliyo bo'lsa, goh, go'zallar yuzining ko'zgusida aksini ko'rishligi va bu hayotidan juda mamnun ekanligini aytib, hudhudning taklifini rad etadi.

Shunda hudhud to'tiga qarata: ey, so'zlagan so'zlari xató bo'lган, bemani nutqing fasohatni, noto'g'ri so'zing balog'atni sog'inib qolibdiku, deydi. Shoir ushbu misralar orqali o'z qadrini bilmagan, hurmatini saqlamagan, kishilar ko'z o'ngida hashamu-maqtovga mukkasidan ketgan kishilarni qoralaydi. Aynan, to'tining timsolida sirti go'zal, ammo, ichi nurab ketgan insonlarni tasvirlaydi. Ular o'zining besh kunlik hayotida asl maqsadini unitib, yo'lidan adashganlar va hayot o'yinkulgudan iborat deb hisoblaydilar. To'tining timsolida komolot yo'liga tushishdan avval har bir solikning jismi va ruhi bu maqomotga loyiq bo'lishi kerak ekanligi yana bir bora isbotlanadi.

“O'z husniga, o'z aqliga o'z-o'zicha yuksak baho beradigan kishilarga esa, quyidagi bayt uzil-kesil ma'naviy zarba beradi:

Xudparastesen, o'zungning oshiqi,  
Xudpisandesen – mazammat loyiqi.

Sen o'zingga o'zing oshiq bo'lган nusxasan, o'zingga sig'inadigan zotsan. O'zingnigina o'ylaydigan xudbinsan. Bu bilan o'zingni tubanlikka tortasan” deydi.

Yoki, Komil Xorazmiy “qumri” radifli g'azalida:

Agar ul sarvi ozodimg'a ermassan qul, ey qumri,  
Nedin bo'ynungda bordur borho tavqi g'ul, ey qumri?  
Bu gulshan sarvini past etgusidur bot xazon bodi,  
Kuyub ya's o'tig'a boshdin-oyoqing qil kul, ey qumri.

Sen agar ul yorga qul bo'lmasang, ne uchun bo'yningda qator-qator zanjirdan qolgan izlar bor? Shoir tasvirni va ifodani shu qadar go'zallik bilan beradiki, beixtiyor har birimiz Kullning bir qismi Juz ekanligimiz yodimizga tushadi. Xoliqning ishqida qul bo'lган har bandaning ko'nglida shunday yorliq borki, uning

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

nomi iymondir. Nafsni jilovlab turgan ham, oshiqning ishqini yodiga solib turgan ham iymondir, aslida!

Hazrat Navoiy ham “Lisonut-tayr” dostonida qumri haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

Solg‘oningdin bo‘ynungga tasbehi yusr,  
Tilga oning vasfida yuzlandi usr.  
...Kim qilursen nola mahzunlar kibi,  
Ishq savdosida majnunlar kibi.[5; 16]

Hudhud barcha qushlar kabi qumrini ham semurg‘ diydoriga yetish uchun hamroh bo‘lishini so‘raydi. Qumri qushining bo‘ynidagi halqasimon dog‘larga ishora qilib, bo‘yningga rohat tasbihini ildingmi, shuning uchun Yor(Allohn)madh etish tilimgga og‘ir kelyabdimi, deydi. Majnunlardek nola qilayabsan, deydi. Bu kabi ma’no va tasvirlar Komil Xorazmiyning yuqorida keltirilgan g‘azalidagi ma’no bilan uyg‘un ekanligidan, Komilning Alisher Navoiy ijodiga muhabbatি baland bo‘lganlini yana bir bora anglaymiz.

Qumri ham o‘zining uzrini aytganidan so‘ng, hudhud unga quyidagicha javob beradi:

Bo‘yla murdor o‘lgucha g‘aflat aro,  
O‘zni o‘rtab shu’lai firqat aro.  
Er esang, maqsudi asli istabon,  
Yo‘lg‘a kirsang yor vasli istabon.  
O‘lsang ul yo‘l ichra ranju dard ila,  
Jismi zoru joni g‘amparvard ila.

Navoiy hudhudning tilidan qumriga, bu g‘aflat ichida nopol bo‘lguncha, o‘zingni yor ishqida o‘rtab, bizning guruhga qo‘shilmaysanmi? Agar mard bo‘lsang, asl maqsading sari harakat qil. Va bu yo‘ldan muroding faqat Yor (Alloh)ning vasli bo‘lsin. Agar bu yo‘lda o‘z maqsadingga yetmay turib o‘lsang ham baxtdir, deydi.

Har xayrli ishning avvali niyatdir. Insonlarning Allah qoshidagi darajalari niyatga qarab belgilanadi. Zero, niyatlar amallarga bog‘liqdir. Yuqorida Navoiy ham sen manzilingga yetasanmi yoki ulgurmaysanmi aslida bu ahamiyatsiz. Muhimi sen niyat qilib shu yo‘lga-Komillik yo‘liga tushganingdir, demoqchi bo‘ladi.

“Amirul mo‘minin Abu Hafs Umar ibn Xattob (r.a)dan: Men Rasululloh (s.a.v)ning shunday deyayotganlarini eshitdim: «Amallar (faqatgina) niyatlar bilan (ye’tibor qilinadi) va har bir kishi uchun niyat qilgan narsasigina (savobi yoki jazosi) bordir. Bas, kimning hijrati Allah va Rasuli uchun bo‘lsa, uning hijrati Allah va Rasuli uchun (deb e’tibor qilinajak). Kimning hijrati biron dunyo (matosi) ni qo‘lga

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

kiritish yoki bir ayolni nikohlab olish uchun bo‘lsa, uning hijrati nima uchun qilingan bo‘lsa, o‘sha uchundir”.[4;3] (Buxoriy va Muslim rivoyati).

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Sarroj, al-Lun'a, Istanbul, 1996, 360-bet
2. Алишер Навоий. “Лисонут-тайр”. Т.: “Фан”, 1996. 45-бет. (Бундан кейинги иқтибослар айнан шу манбаадан олинган).
3. Ibrohim Haqqul. «Qaro ko'zum kelu...» Bir bayt tahlili. kh-davron.uz,
4. Imom an-Navaviy. Arba'in hadis. 1-hadis. www.ziyouz.com kutubxonasi, 3-bet.
5. “Лисонут-тайр”. Алишер Навоий. Сўзбоши, “Кўнгиллар ҳамрози”. Раҳмонов В. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. 6-бет